

PROBATSIIYA XIZMATI USTIDAN NAZORATNING ASOSIY SHAKLLARI VA NAZORATGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Umaraleyva Dilshoda

Nabijonovna

IIV Akademiyasi huquqbuzarliklar

Profilaktikasi kafedrasida katta

o‘qituvchisi

Baxtiyorov Shohijahon Bahodir o‘g‘li

IIV akademiyasi kursanti

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Probatsiya xizmati faoliyati ustidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va bu nazoratga qo‘yiladigan huquqiy va tashkiliy talablar yoritilgan. Probatsiya institutining jamiyatda tutgan o‘rni, uning ochiqdigi va qonuniyligini ta‘minlashda nazorat tizimining ahamiyati ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье проанализированы формы контроля за деятельностью службы пробации, а также правовые и организационные требования, предъявляемые к данному контролю. Кроме того, с научно-теоретической точки зрения освещено значение системы контроля в обеспечении открытости и законности института пробации, а также его роль в обществе.

Annotation. This article analyzes the forms of supervision over probation service activities, as well as the legal and organizational requirements imposed on such supervision. It also examines, from a scientific and theoretical perspective, the importance of the control system in ensuring the transparency and legality of the probation institution, as well as its role in society.

Kalit so‘zlar: Probatsiya, nazorat shakllari, qonuniylik, sud nazorati, prokuror nazorati, jamoatchilik nazorati, ichki idoraviy nazorat.

Kirish

• So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining liberallasuvi jarayonida Probatsiya xizmati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan shaxslar ustidan nazoratni tashkil etish va ularni jamiyatda qayta ijtimoiy moslashtirish — ushbu xizmatning asosiy vazifalaridan biridir. Biroq ushbu faoliyatda qonuniylikni ta‘minlash, inson huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish uchun doimiy nazorat mexanizmlariga ehtiyoj mavjud.

• **Probatsiya**²⁴ — muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta‘minlashga,

²⁴ Probatsiya to‘g‘risidagi 2024 yil 7-avgust dagi qonun

mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

- Tajriba va o'rganishlar natijasida, bunday insonlarni oila a'zolari, yaqinlari, keng jamoatchilik orasida bo'lishi ijobiy natija berishi isbotlandi. Ayniqsa shaxsning oilasidan uzoqlashmagan holda jazoni o'tashi, oilaning mohiyatiga ko'ra, o'zining turli, odatiy tarbiyaviy qoidalari, majburiyatlari, ishontirish va jazo tizimi mavjud ekanligi, shaxsga yaqin qarindoshlarining ijobiy ta'siri bilan ham shaxsni ahloqan tarbiyalashda ijobiy ta'sir etadi. Shu bois jinoyat sodir etgan shaxs yoki jinoyat sodir etishga moyilligi bo'lganlarni jazolash masalasiga yangi, oqilona yechim topish zarurati yuzaga keldi.

- Har qanday sohaviy xizmat faoliyatining samarali ish olib borilishini tashkil etish uchun, ushbu faoliyat ustidan olib boriladigan nazoratning ahamiyati kattadir.

- Nazorat bu - muayyan faoliyatning qonuniy va samarali olib borilishini ta'minlovchi muhim vositadir.

- Probatsiya xizmati ustidan nazorat shakllari quyidagilardan iborat:
- Ichki idoraviy nazorat
- Probatsiya xizmatining o'z ichki tuzilmasida yuqori bo'g'in organlari tomonidan muntazam rejalashtirilgan va favqulodda tekshiruvlar o'tkaziladi. Bu nazorat:

- Shaxsiy yigma jildlarning yuritilishi,
- Hisobaot statistik ma'lumotlarning to'g'riligi,
- Jazoni ijro etishdagi qonuniylik holatlarini qamrab oladi.

Prokuror nazorati

- O'zbekiston Respublikasi 29.09.2001-yildagi Prokuratura to'g'risidagi qonunning 4-bobi 30-moddasiga asosan:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va joylardagi prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan ushbu nazorat:

- qonun buzilishlarini aniqlash,
- qonunga xilof harakatlarni bartaraf qilish
- Probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning huquqlarini tiklash choralarini ko'rishni o'z ichiga oladi.²⁵

Sud nazorati


- O'zbekiston Respublikasining 28.07.2021-yildagi Sudlar tugrisidagi qonuniga muvofiq:²⁶

- Sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlar ijrosini kuzatish orqali Probatsiya xizmatining faoliyati nazorat qilinadi. Bu holat:

- tayinlangan jazoni o'z vaqtida ijro etilganligini

²⁵ O'zbekiston Respublikasi 29.09.2001-yildagi Prokuratura to'g'risidagi qonun

²⁶ O'zbekiston Respublikasining 28.07.2021-yildagi Sudlar tugrisidagi qonun

- 
- jazoni og‘iri bilan almashtirilishi uchun taqdim qilingan yigma jildni qonun hujjatlariga rioya etilganligini
 - nazorat ostidagi shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish muddati kelganda Probatsiya inspektorini taqdimnomasin to‘g‘riligini tekshirish.

Jamoatchilik nazorati

O‘zbekiston Respublikasining 29.03.2018 yildagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 474-sonli Qonun asosida amalga oshiriladi.²⁷

• Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat tashkilotlar va mahalliy kengashlar Probatsiya xizmatining faoliyatini ochiqlik tamoyillari asosida kuzatib boradi.

Bu orqali quyidagilarga erishish mumkun:

- korrupsiyaga qarshi kurash,
- shaffoflikni ta‘minlash,
- mas‘uliyatni oshirish imkonini beradi.
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi;
- jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o‘rganish

Nazorat tizimi samarali bo‘lishi uchun unga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

• Qonuniylik: Probatsiya nazoratini amalga oshirish chog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etish hamda ularni bajarish shart. Xolislik va shaffoflik: dalillarga asoslangan holda, biron-bir tomonning manfaatini ko‘lamagan holda amalga oshirilishi zarur;

• Tizimlilik: nazorat faqat bir martalik tadbir emas, balki doimiy monitoring shaklida olib borilishi kerak;

• Maxfiylik: nazorat jarayonida olingan ma‘lumotlar sir tutilishi va oshkor etilmasligi shart;

• Probatsiya xizmatini ustidan nazoratni amalga oshirish borasida xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilganida quyidagilar aniqlandi:²⁸

AQSH tajribasi²⁹


• AQShda Probatsion & Parole xizmatlari shtat darajasida turlicha yuritiladi. Lekin umumiy nazorat quyidagi organlar tomonidan olib boriladi:

• Federal nazorat: Federal Probatsiya Departamenti faoliyati AQSH Adliya departamenti va Federal sudlar kengashi tomonidan baholanadi.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasining 29.03.2018 yildagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi 474-sonli Qonun

²⁸ Umaraliyeva D.N. Probatsiya xizmati faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.

²⁹HM Inspectorate of Probation

- 
- Ichki audit va tashqi tekshiruvlar: Har yili mustaqil audit agentliklari va Ombudsmanlar faoliyatni tekshiradi.
 - Monitoring va statistika: Bureau of Justice Statistics (BJS) doimiy monitoring olib boradi, bu orqali tizimdagi kamchiliklar aniqlanadi.
 - Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, probatsiya xizmati zamonaviy huquqiy davlatning muhim institutlaridan biri bo‘lib, uning faoliyatiga nisbatan to‘g‘ri va samarali nazorat o‘rnatilishi — adolatli sudlov, inson huquqlari va ijtimoiy xavfsizlikning kafolatidir. Nazorat shakllari va talablarining mukammallashtirish probatsiya tizimining yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya tajribasi³⁰

Buyuk Britaniya tajribasida probatsiya xizmati ustidan nazorat ko‘p darajali va tizimli tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Asosiy nazorat shakllariga ichki institutsional nazorat, mustaqil inspeksiya va parlament nazorati kiradi. Xususan, maxsus inspeksiya organlari tomonidan probatsiya xizmatining samaradorligi, qonuniyligi va natijadorligi muntazam baholab boriladi. Shuningdek, sudlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o‘zaro hamkorlik doirasida ham nazorat mexanizmlari amal qiladi.³¹

Nazoratga qo‘yiladigan asosiy talablar sifatida ochiqlik, xolislik, hisobdorlik va qonuniylik prinsiplari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Probatsiya xizmati faoliyati shaffof bo‘lishi, uning natijalari jamoatchilik va vakolatli organlar uchun ochiq e‘lon qilinishi talab etiladi. Shu bilan birga, nazorat organlarining mustaqilligi va professional yondashuvi probatsiya tizimining samaradorligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Probatsiya to‘g‘risida”. O‘RQ-938-son, 07.08.2024. // Lex.uz.
- 2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. // Lex.uz.
- 3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”. O‘RQ-407-son, 16.09.2016. // Lex.uz.
- 4. Anvarov T.A. O‘zbekiston Respublikasi Probatsiya xizmati faoliyatini takomillashtirish: tashkiliy-huquqiy jihatlari. Avtoreferat. // Interaktiv.oak.uz.
- 5. Probatsiya xizmati faoliyatida inson huquqlarining ta‘minlanishi. // In-academy.uz.
- Umaraliyeva D.N. Probatsiya xizmati faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. https://www.gospodarkainnowacje-pl.openconference.us/index.php/issue_view_32/article/view/2532

³⁰ Probatsiya instituti – xorijiy mamlakatlar tajribasi. // ResearchGate

-
- 6. Probatsiya instituti – xorijiy mamlakatlar tajribasi. // ResearchGate.
- 7. Yevropa Kengashi. Probatsiya qoidalari (ESR 43-son). // Coye.int.
- 8. O‘zbekiston Respublikasida qayta jinoyatchilik statistikasi, 2019-2024. // Stat.uz.

